QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 30-sentabr | 325-4-62-Q/24 | Kitob tuman hokimligi

2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlashaolmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi 19-2019-B-sonli buyrug'i ijrisoni ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlovchi maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘p bo'lsa ular o'rtacha sonining 7 foizigacha (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 95 ta kvota ish o‘rinlari belgilash 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalarda joriy yilda ishga joylashtirgan shaxslar ish o‘rinlari 2025-yil uchun band qilinadigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) O‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 40,0 foiz (38kishi);

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oily ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 44,2 foiz (42 kishi);

v) Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 3,1 foiz (3 kishi);

g) Nogironlar uchun1,1foiz (1kishi);

d) Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 4,2 foiz (4 kishi);

y) Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,1 foiz (2 kishi);

j) Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlanganlar uchun 5,3foiz (5kishi)

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o'rinlari zaxiraga qo‘yilgani haqida tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limini xabardor qilsinlar.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin va bu haqda tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7. Nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha ish o‘rni tashkil etgan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilangani inobatga olinsin.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan korxona, tashkilot va muassasalar mansabdor shaxslariga ma’muriy javobgarlik belgilangani inobatga olinsin.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oyidan keying oyning 5-kuniga qadar tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limiga muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida 3-ilovaga muvofiq shaklda ma’lumot taqdim etsin.

10. Yil davomida Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rni tashkil etgan, ijtimoiy ehtiyojmand shaxslarni kvotadagidan ko’p ishga qabul qilgan korxona va tashkilotlar har bir xodimiga har oyda eng kam oylik ishhaqining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi belgilab qo‘yilgani inobatga olisin.

11. Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlariga yetkazsin va bajarilishi ustidan nazorat o'rnatsin.

12. Tuman hokimining 2023-yil 6-sentabrdagi 220-4-62-Q/23-sonli qarori 2024-yilning 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Nasimov zimmasiga yuklatilsin.

14. Mazkur qaror 2025-yilning 1-yanvar kunidan kuchga kiradi.

Kitob tumani hokimi

G‘AFUROV RUSTAM.ABDIRASULOVICH

Kitob tuman hokimining
2024-yil 30-sentabrdagi
325-4-62-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni oʻzgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish oʻrinlarining eng kam soni va ularga qoʻyiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi

T A R K I B I

T/r	F. I. Sh	Lavozim
1	T.Nasimov	tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ʼ Z O L A R I		
2	F.Uzoqov	tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limi boshlig'i, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	I.Togʻayev	Kitob tuman IIB boshligʻi
4	A.Qosimov	Kitob tuman mudofaa ishlari boʻlimi boshligʻi
5	I.Olimjonov	Kitob tuman TMEK raisi
6	M.Kenjayev	Kitob tuman Maktabgacha va maktab bo`limi boshlig`i v.v.b

Kitob tuman hokimining
2024-yil 30-sentabrdagi
325-4-62-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Kitob tumani boʻyicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlari toʻgʻrisida
M A ʼ L U M O T

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar	Shtat jadvali boʻyicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zahiraga qoʻyish taklif etilayotgan ish oʻrinlari soni	Shu jumladan						
				14 yoshgacha va nogiron bolalari boʻlgan yolgʻiz va koʻp bolali ota-onalar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Umumiy oʻrta oʻrta maxsus, kasb hunar taʼlimi muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish oʻrinlari	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni oʻtagan va Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun band qilingan ish	Nogironligi boʻlgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun band qilingan ish oʻrinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish oʻrinlari soni

	roʻyxati (korxona va tashkilotlarning nomi)				son	oʻrinlari soni				
1	Kitob tuman davlat sanitariya va epidemiologiya markazi	84	3	2	1					
2	Viloyat 2-sonli Asab ruhiy kasalliklar shifoxonasi	156	2	1	1					
3	Davlat oʻrmon xoʻjaligi	195	6	3	2	1		1		
4	Javuz davlat oʻrmon xoʻjaligi	57	3	1	1				1	
5	18-sonli umumtaʼlim maktabi	30	2	1	1					
6	37-sonli	24	1		1					

	umumtaʼlim maktabi									
7	54-sonli umumtaʼlim maktabi	28	1	1						
8	I.Sino sanatoriyasi	147	2		1			1		
9	Palandara bola-lar sanatoriyasi	124	2	1		1				
10	25-sonli umumtaʼlim maktabi	27	1		1					
11	74-sonli umumtaʼlim maktabi	31	2	1	1					
12	Tibbiyot birlashmasi	2389	25	13	9		1	1		
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	165	7	4		1		1	1	
14	Yuqumli kasalliklar shifoxonasi	142	5	3	2					
15	Madaniyat boʻlimi	51	1		1					
16	2-sonli	41	1		1					

	umumtaʼlim maktabi									
17	11-sonli umumtaʼlim maktabi	24	1		1					
18	62-sonli umumtaʼlim maktabi	25	1	1						
19	70-sonli umumtaʼlim maktabi	24	2	1	1					
20	5-sonli umumtaʼlim maktabi	38	2	1	1					
21	28-conli umumtaʼlim maktabi	25	1	1						
22	1-sonli umumtaʼlim maktabi	31	1		1					
23	50-sonli umumtaʼlim maktabi	21	1		1					
24	32-sonli umumtaʼlim maktabi	26	1	1						
25	65-sonli umumtaʼlim	23	1		1					

	maktabi									
26	82-sonli umumta′lim maktabi	25	1	1						
27	78-sonli umumta′lim maktabi	20	1		1					
28	20-sonli umumta′lim maktabi	31	1	1						
29	81-sonli umumta′lim maktabi	28	1		1					
30	26-sonli umumta′lim maktabi	20	1		1					
31	21-sonli umumta′lim maktabi	23	1	1						
32	12-sonli umumta′lim maktabi	30	1		1					
33	3-sonli umumta′lim maktabi	29	1		1					
34	36-sonli umumta′lim	20	1		1					

	maktabi									
35	6-sonli umumta′lim maktabi	27	1		1					
36	39-sonli umumta′lim maktabi	20	1		1					
37	41-sonli umumta′lim maktabi	20	1		1					
38	51-sonli umumta′lim maktabi	31	1		1					
39	45-sonli umumta′lim maktabi	27	1		1					
40	46-sonli umumta′lim maktabi	20	1		1					
41	47-sonli umumta′lim maktabi	24	1	1						
42	48-sonli umumta′lim maktabi	21	1		1					
43	49-sonli umumta′lim	24	1		1					

	maktabi									
44	63-sonli umumtaʼlim maktabi	24	1		1					
45	94-sonli umumtaʼlim maktabi	21	1		1					
	Tuman boʻyicha jami:	**4413**	**95**	**40**	**45**	**3**	**1**	**4**	**2**	